

# QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAQIQ QILISHNING IJTIMOYIY - IQTISODIY AHAMIYATI

*Xudayberganov Azamat*

*Bank Moliya akademiyasi magistranti “O‘zmilliybank”  
AJ Xorazm viloyat Bosh boshqarmasi Bank tarmog‘i va servisni  
rivojlantirish bo‘yicha katta menejer*

*Otaboyev Fazliddin*

*Ma‘mun NTM universiteti talabasi*

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda strategik ahamiyatga bo‘lgan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur tarmoq rivojlanishi davriy zaruriyat kasb qilgani holda, aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirishda yagona muhim tabiiy manba sanaladi. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy faravonligini ta‘minlashga allaqachon katta hissa qo‘shgan bo‘lsa, rivojlanayotgan va kam rivojlangan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab ilg‘or xorijiy davlatlarning taraqqiyot tarixidan ma‘lumki, qishloq xo‘jaligi iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki asosi va doimiy ta‘minotchisi vazifasini bajaradi. Bir vaqtning o‘zida ham iste‘mol tarmog‘ini, ham sanoat tarmog‘ining asosiy manbai hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda ham qishloq xo‘jaligining rivoji muhim ahamiyat kasb etgani holda, uning rivojlantirish uchun muhim chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi O‘zbekistonni barpo etishda qishloq xo‘jaligini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashdagi rolini oshirish, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda [1]. Mamlakatimizda barcha mintaqalarida ham qishloq xo‘jaligi asosiy muhim tarmoqlardan hisoblanadi. Xususan, Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki u boshqa tarmoqlarga nisbatan mutloq ustunlikka ega. Chunki hududning tabiiy iqlimi va mavjud resurslar, aholining sohaga oid bilim va ko‘nikmalari qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarga qaraganda ancha foydali bo‘lishini ta‘minlamoqda [2].

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi ahamiyati va rolini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Bular:

1. Milliy daromadni shakllashtirishdagi hissasi;
2. Oziq – ovqat ta‘minotining manbai va oziq – ovqat xavfsizligini ta‘minlash vositasi;
3. Sanoatlashtirishda xom – ashyo ta‘minotchisi;
4. To‘lov balansi ijobiy saldosi ta‘minlashda muhim manbalardan biri;
5. Inson kapitalini rivojlantirish;
6. Zaruriy infratuzilmani shakllanitrish;

7. Kapital tanqisligi muammosini bartaraf etish;
8. Samarali talabni yaratish;
9. Mamlakatda xorijiy valyuta jalb qilish manbai;
10. Dastlabki kapitalni shakllantirish vositasi;
11. Qishloq joylaridagi aholi bandligini ta'minlash manbai;
12. Qishloq aholisi faravonligini oshirish;
13. Sanoat mahsulotlari bozorini kengaytirishi;
14. Iqtisodiy o'sish manbai.

Ko'plab ilg'or xorijiy davlatlarning taraqqiyot tarixidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki asosi va doimiy ta'minotchisi vazifasini bajaradi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligini barqaror rivojini ta'minlash, sohani rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda statistik va ekonometrik usullardan foydalanishni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarni ekish, qishloq xo'jalik hayvonlarini boqish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, yig'ib olish, tashish va saqlash, qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi yoki ular bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. Istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu kabi holatlarda statistika zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish uchun uslubiy asosni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu jarayonlarni tushunish va ular rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish sohani rivojlanishiga imkoniyatlar yaratib beradi.

Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligini barqaror rivojini ta'minlash, sohani rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda statistik va ekonometrik usullardan foydalanishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligini rivojlanishiga yordam beruvchi tadqiqotlar doim, mukammal statistik usullar asosida amalga oshirishni talab qiladi.

Tadqiqotni amlash oshirishda mos statistik usulni tanlash muhim bosqich hisoblanadi. Bunda quyidagilarni hisobga olish talab qilinadi.

1. Tanlab olingan o'zgaruvchilar erkli o'zgaruvchi yoki erksiz o'zgaruvchi ekanligini aniqlash;

2. O'zgaruvchilar diskret yoki uzluksizligini aniqlash.

Natijada, tajriba yoki tanlama kuzatuv asosida yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos bo'lgan usulni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Qishloq xo'jaligini tadqiq qiluvchi barcha tadqiqotchilar natijaviy omil  $Y$  hamda ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar  $X_1, X_2, X_3, \dots, X_n$  orasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilishadi. Ya'ni natijaviy omil hamda ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar orasidagi funksional bog'liqlikni baholashga harakat qilishadi.

Korrelyatsiya usuli bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi va darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Regression tahlil o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikning funksional ko'rinishini aniqlashga xizmat qiladi. Regression tahlil erkli o'zgaruvchilarning mos yoki berilgan qiymatiga to'g'ri keladigan erksiz o'zgaruvchi qiymatini aniqlash imkonini beradi. Regression tahlil usuli o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarning aniqlaydi.

Statistik tahlilni amalga oshirganda tanlama kuzatuv asosida shakllantirilgan ma'lumotlar ma'lum guruhlardan iborat bo'ladi, mazkur guruhlardagi o'zgarish chastotalarini aniq qonuniyatlar asosidagi chastotalarga qanchalik darajada mos tushushini baholash asosida belgilangan gipotezlarda bo'yicha tekshirishlar amalga oshiriladi. Ya'ni nol gipoteza to'g'ri deb qabul qilinganida kuzatilgan chastotalar kutilgan chastotadan farq qilish va qilmasligini aniqlash talab qilinadi. X-kvadrat taqsimot tanlama asosidagi ma'lumotlar taqsimotining qanchalik darajada nazariy jihatdan mos kelishini aniqlash uchun foydalaniladi.

$$\chi^2 = \sum_{i=1}^n \frac{(O_i - E_i)^2}{E_i}$$

Bu erda:  $O_i$ - guruhdagi kuzatilgan chostatani ifodalaydi.  $E_i$  – mos keladigan kutilgan chostatani ifodalaydi.

Shuningdek, Styudent testi ikkita guruh ma'lumotlari o'rtacha qiymatlarini solishtirish uchun foydalaniladi. Ikkala guruh asosida aniqlangan o'rtacha qiymatlarning bir biridan sezilarli darajada farq qilishini asoslashga xizmat qiladi.

$$t = \frac{(\bar{x} - \bar{y})}{\sqrt{s^2 \left( \frac{1}{n_1} + \frac{1}{n_2} \right)}}$$

Bu yerda nol gipoteza tanlab olingan to'plamlar normal taqsimotga bo'ysunadigan bosh to'plamdan olingan va o'rtacha qiymatlari  $\mu_x$  va  $\mu_y$ , farazga ko'ra bosh to'plam bo'yicha aniqlangan o'rtacha kvadratik chetlanishlar biri – biriga teng deb qaraladi.

Bu erda:

$$s^2 = \frac{1}{(n_1 + n_2 - 2)} \left[ \sum_{i=1}^{n_1} (X_i - \bar{X}) + \sum_{i=1}^{n_2} (Y_i - \bar{Y}) \right]$$

$n_1 + n_2 - 2$  erkinlik darajasi bo'yicha t- taqimotga bo'ysunadigan bosh to'plamning o'rtacha kvadratik chetlanishidir.

Keyinchalik tahlil qilish uchun biz qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalandik, masalan, median. Aniqlangan median ko'rsatkichlar yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti o'sish sur'atining o'rtacha qiymatidan kichik bo'lsa, tarmoqlar kesimida teskari holat kuzatilishi mumkin. Medianning o'rtachadan chetlanishi taqsimotning o'ngga yoki chapga qiyshayganligini ko'rsatadi. Agar mediana o'rtachadan kichik bo'lsa, u o'ngga yoki musbatga qiyshaygan deb hisoblanadi, bu esa bu holatda keskin ijobiy o'zgarish borligini ko'rsatadi [3].

Keltirib o'tilgan mezonlar iqtisodiy statistik tahlilni amalga oshirishda foydalanilayotgan tanlama kuzatuv asosida olingan ma'lumotlarning qanchalik darajada mavjud chastotalarga mos kelishini aniqlash hamda bosh to'plamni qanchalik darajada ifodalashini ainqlashga xizmat qiladi.

Ushbu keltirib o'tilgan mezonlar tadqiqot ishini amalga oshirishda foydalanilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini asoslashga hamda ular asosida amalga oshirilgan tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning asosligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, nisbatan ko'plab omillar ta'siri ostida bo'lgan va nisbatan tavakkalchilik yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi rivojlanishini tadqiq qilishda mazkur mezonlardan foydalanishning ahamiyati ancha yuqori hisobalandi.

Qishloq xo'jaligini tadqiq qilishda turli statistik usullardan foydalanish, jumladan, regression-korrelyatsion tadqiqot usullarini qo'llash mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini baholash, turli ning oqibatlarini o'rganish, omillar ta'sirini baholash asosida sabab va oqibat tadqiqot usuliga tayangan holda aniq qiymatliklar asosida o'lchashga xizmat qiladi. Xususan, qishloq xo'jaligiga oid fanlarda sohaga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sirini baholash, olingan natijalar asosida xulosalar chiqarish, soha samaradorligini oshirish boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi masalalarini yechishda eng muhim va samarali bo'lgan usullardan biri sifatida qaralib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev Yo.A. *Statistika nazariyasi. Darslik, -T.; O'qituvchi, 2002. – b. 592.*  
Butanova D. (2024). *Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.*
2. Butanova, D. R. (2023). *Issues of assessing the role of agriculture in providing economic growth in khorezm region. Актуальные вопросы общества, науки и образования (pp. 40-43).*  
Gulyamov S.S., Abdullaev A.M., Olimjonov A.U. *Vaqtli qatorlarning statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlashtirish. /B.To'rayevning umumiy tahriri ostida. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 284 bet*
3. Butanova, D. R. (2023). *Statistical analysis of agriculture development in khorezm region. Фундаментальная и прикладная наука (pp. 38-41).*  
Abdullaev I.S. *Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt. Fan. Dokt. Diss. Avtoreferati. – T.: 2017 – 67 bet*
4. Butanova D.R. *Qishloq xo'jaligi rivojlanish tendesiyalarini ekonometrik modellashtirish (Xorazm viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) diss. Avtoreferati. – U.: 2023- 29 bet*
5. Butanova D.R. *Mintaqada qishloq xo'jaligi rivojlanish tendesiyalarini ekonometrik modellashtirish. Monografiya - U.: «Khwarezm publication », 2024, 132 bet*

## **O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNI OLDINI OLISH VA MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNING AHAMIYATI**

***O'rolova Nodirabegim***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti Mintaqaviy iqtisodiyot ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil